

## Istiqbolli hamkorlik: Yadroviy tadqiqotlar Birlashgan instituti delegatsiyasi tashrifi

Bugun, O'zbekiston Fanlar akademiyasida respublikamizning ilmiy va ta'lim tashkilotlari hamda Yadroviy tadqiqotlar Birlashgan instituti o'rtasida hamkorlik istiqbollari muhokama qilishga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi. Davra suhbatida FA ilmiy tashkilotlari, yetakchi oliy ta'lim muassasalari vakillari ishtirok etdi.





Uchrashuv va munozaralar natijalariga ko'ra, YaTBI va O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Namangan muhandislik-texnologiyalari institutlari o'rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi.



Bundan ko'zlangan maqsad, yuqori malakali ilmiy, muhandis kadrlar tayyorlashga qaratilgan qo'shma loyihalar, xalqaro ilmiy forumlar va ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat.

Shuningdek, YaTBI delegatsiyasi tashrifi doirasida O'zR FA Yadro fizikasi institutida "Bulutli hisoblashlar klasteri"ni ochish va ishga tushirish marosimi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Ma'lumot o'rnida, Yadroviy tadqiqotlar Birlashgan instituti (YaTBI) Dubna shahrida joylashagan xalqaro tadqiqot markazidir. Institut 1956-yil 26-martdan davlatlararo "YaTBI ni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma" asosida tashkil etilgan. YaTBI xalqaro standartlariga muvofiq, BMT Kotibiyatida ro'yxatdan o'tgan. Hozirgi vaqtda Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining 19 ta davlati YaTBI doimiy a'zolari. O'zbekiston Respublikasi 1993-yildan beri YaTBIning to'laqonli a'zosi hisoblanadi.